

MAKTABDA NUTQ USLUBLARINI O'QITISHNING MAVJUD HOLATI

Jurayeva Sarvinoz O'tkir qizi

BuxDU o'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasida magistranti

Annotatsiya: *Mazkur maqola maktabda nutq uslublari haqidagi bilimlar, asosan, 10-11-sinflarda o'tilishi aytib o'tilgan. Maktabda nutq uslublari o'qitish holati, ularning o'qitish, o'tish metodlari haqida aytilgan. Maktabda nutq uslublari o'qitishning mavjud holatini bitta mavzu kelishiklar misolida ko'rib o'tilgan. Kelishiklarning belgisi va belgisiz qo'llanishi o'rganilgan. Kelishiklarning nutq uslublari haqida tutgan o'rnini haqida so'z yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *nutq uslublari, so'zlashuv, ilmiy, badiiy, publitsistik, rasmiy uslub, kelishik shakllari, "Assesment" texnikasi, kelishik qo'shimchalarining belgisi va belgisiz qo'llanilishi*

Har bir davr, ijtimoiy tuzum insoniyat oldiga u yashab turgan hayotni real idrok etish, mavjud ijtimoiy-siyosiy, moddiy-ma'naviy salohiyatdan yangicha, o'z istiqboli manfaatlaridan kelib chiqib foydalanish, turlicha mazmundagi an'analarni zamon talablariga moslab isloh qilish masalalarini qo'yishi tabiiy hol, albatta.

O'zbekiston Respublikasi XX asrning oxirgi o'n yilligi boshida qo'lga kiritgan mustaqillik xalqimizning har tomonlama rivojlangan, kamol topgan, o'z tarixiy va milliy an'analirimizni yangicha bir tarzda rivojlantirishga imkon beradigan, o'zbek millatini dunyodagi ma'naviyati eng yuksak xalq darajasiga ko'tarishga sharoit yaratadigan kelajagimizni barpo etishga zamin yaratdi.

Tub islohot deb ataladigan ko'p qirrali va o'ta murakkab jarayon ijtimoiy-siyosiy turmush tarzimizning, shubhasiz, barcha jabhalarini qamrab oladi. Jumladan, barkamol avlod tarbiyasini milliy istiqbol g'oyasiga yo'g'rilgan aniq maqsadlarga yo'naltirish, yaxlitlikni tashkil etadigan uzluksiz ta'lim jarayonini ana shu vazifalarga bo'ysundirish ham yuqorida tilga olingan islohotlar doirasida ro'y berdi. Jumladan, maktab darsliklarining yangi avlodlari yaratildi va ularni takomillashtirish hamda bu sohada rivojlangan mamlakatlar tajribalarini o'rganish hamon davom etmoqda.

Bugun O'zbekistonimiz "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" degan bosh g'oya asosida taraqqiyotning yangi bosqichiga ko'tarilmoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamlil islohotlar jarayonida davlat tilining hayotimizdagi o'rnini va nufuzini tobora oshirib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqei tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5850-son Farmoniga muvofiq bugungi globalashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o'z milliy manfaatlarini ta'minlash, bu borada avvalo o'z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor

ahamiyat qaratishi tabiiydir¹. Respublikamizda davlat tili, ya'ni o'zbek tilining mavqeini yanada oshirish maqsadida imzolangan farmondan til ta'limini yanada takomillashtirish, eng so'nggi zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida ona tiliga oid bilimlarni o'quvchilarga singdirish, dars jarayonida olingan bilim, ko'nikma va malakalarni kompetensiya darajasiga olib chiqish, olingan bilimlarni o'zbek tilining barcha uslublarida faol qo'llay olish kompetentligini shakllantirish bugungi til ta'limning maqsadiga aylandi. Ona tili millat madaniyatini, mentalitetini, tirikligini ko'rsatib turuvchi asosiy vositadir. Maktab ta'limida ona tili o'qitishdan maqsad o'quvchilarning o'z ona tillarida og'zaki va yozma shaklda mustaqil va ijodiy fikrlay olish, o'zgaralar fikrini anglaydigan, muloqot va nutq madaniyati rivojlangan shaxsni tarbiyalashdan iborat².

Maktabda nutq uslublari haqidagi bilimlar, asosan, 10-11-sinflarda o'tiladi. Maktabda nutq uslublarini o'qitishning mavjud holatini bitta mavzu doirasida ko'rib o'tamiz.

Ona tili o'qitishda tilning imkoniyatlarini grammatika orqali ko'rsatishning imkoni yo'q. Til qonun qoidalarini uslubiyat bilan bog'lab o'rgatish, har bir til birliklarini o'rgatishda til birliklarining uslubiyatini ham birgalikda o'qitish tilning ta'sirchanlik, mantiqlilik, aniqlik, soddalik kabi hususiyatlarini ko'rsatish imkonini beradi. Uslubiyatsiz hech bir til o'zligini ko'rsata olmaydi. Uslubiyat bu tilshunoslik qoidalari asosida amalda to'g'ri nutq tuza olish hisoblanadi. "Til, – deb yozadi G.O.Vinokur, – faqat amaliy qo'llanishdagina tildir"³. Grammatika to'g'ri nutq tuza olish va to'g'ri yozishni, uslubiyat esa til imkoniyatlaridan qayerda qanday foydalanishni o'rgatadi. Uslubiyatda tilning amaliy vazifasi ko'rinadi. Gapda fikrni tushunarli ifodalash uchun faqat grammatika qoidalariga amal qilishning o'zigina kifoya qilmaydi, gapni stilistik to'g'ri tuza bilish ham kerak. Quyidagi misollarga e'tibor qiling: *Sessiyada ishtirok etgan tuman partiya kengashining kotibi sessiya oxirida so'z olib so'zladi, ... bu nuqsonlarni tugatish uchun zarur yordam ko'rsatishlari zarur.* (Gazetadan) Bu gaplar grammatik jihatdan to'g'ri tuzilgan bo'lsa ham "sessiya", "zarur" so'zlarining o'rinsiz takrorlanishi uslubiy nuqson sanaladi.

Til qonun qoidalari daraxtning tanasi, shox-shabbasi bo'lsa, til uslubiyati daraxting barglari, gul-u mevasidir. SHunday ekan tanasiz, shox-shabbasiz daraxt bo'lmaydi, barg-u gulsiz daraxtning go'zalligi estetik ta'sir ko'rsatish kuchi yo'qoladi. Bizningcha, til va uslubiyatni bir biridan ayrib o'rgatish aslo mumkin emas. Har bir inson nutq tuzish jarayonida ma'lum bir maqsadni ko'zlaydi. Ana shu maqsad va nutqiy vaziyat bilan bog'liq holatda vaziyatga mos mahsus nutq shakllantiriladi. So'zlovchining maqsadi asosida ijtimoiy hayotdagi ma'lum soha doirasida (masalan, ilmiy, rasmiy, badiy kabi), muayyan nutqiy vaziyatda

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 21 октябрдаги "Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПФ-5850-сон фармони. <https://lex.uz>

² Араббоева М. Келишиқлар услубиятини ўқитиш муаммолари // Мактаб таълими. – 2020, 4 (89)-сон.–62-б.

³ Винокур Г.О. Избранные работы по русскому языку. – М., 1957. –С.: 221.

qo'llanadigan til shakli nutq uslubi hisoblanadi. Nutq uslubi tilning vazifasi bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Har bir nutq uslubi o'ziga xos til xususiyatlarga ega bo'ladi. Bu xususiyatlarni bilish nafaqat to'g'ri gapirish va yozish, balki aniq, ta'sirli, mantiqli va tugal nutq tuzish imkonini ham beradi. Nutq uslublariga daxldor til xususiyatlarning jami uslubiyat deb yuritiladi. Til uslublarini o'rganish esa tilning ichki imkoniyatlarini bilish imkonini beradi. Har bir tilning uslubiyati millat tilining mentalitetini ko'rsatib turadi. Shunday ekan til grammatikasini o'rgatishda uslubiyatni ham birga o'rgatib borish kerakligi maqolamizning maqsadini ifodalaydi. Kelishik qo'shimchalari ham so'zlovchining maqsadi, vaziyat talabi bilan turli nutq uslublarida turlicha qo'llaniladi. Bu esa kelishik qo'shimchalari ham uslubiy vazifa bajarishini ko'rsatadi.

Maktab ta'limida morfologiyaga oid bilimlar boshlang'ich sinflardan oq berib boriladi. Kelishik qo'shimchalari haqidagi bilimlar o'quvchilarga 5-sinfdan o'rgatiladi. "Otlarga qo'shib, ularni o'zidan keyingi kelgan boshqa so'zlarga tobelashtirib bog'lab keladigan qo'shimchalarga kelishik qo'shimchalari deyiladi"⁴, deb qoida berilib, har bir kelishik qo'shimchalari bilan tanishtiriladi. Bundan ko'rinadiki, kelishik qo'shimchalarining grammatik vazifasi haqida ma'lumot keltirilib, uslubiy vazifasi haqida gapirilmagan. 7-sinfda esa "ot, olmosh va otlashgan so'zlarga qo'shib, ularni boshqa so'zlarga bog'lash uchun xizmat qiluvchi grammatik shakllar tizimi kelishik shakllari sanaladi. Kelishik shakllari doimo tobe so'zga qo'shiladi. O'zbek tilida oltita kelishik mavjud bo'lib, ularning har qaysisini o'z nomi va shakllari bor"⁵, deb berilgan. Har bir kelishiklarning grammatik ma'nolarini ochib berish uchun alohida dars mo'ljallangan, lekin bu sinf darsligida ham uslubiyati haqida to'xtalmagan. 10-sinfda esa kelishik shakllarining uslubiyatini o'qitish maqsad qilinadi⁶. Lekin, afsuski, maktab ta'limida mavzuni o'quvchilarga etkazib berishda va mavzuni o'quvchilar tomonidan o'zlashtirib olishlarida murakkabliklar, qiyinchiliklarga uchramoqdalar.

Bu qiyinchiliklarni bartaraf qilish uchun har bir til birliklarini grammatik shakli, vazifasi va uslubiy vazifasi yonma-yon o'rgatilib, misollar bilan asoslanishi kerak. Shundagina o'quvchi o'zi o'rganayotgan tilga doir bilimlarni grammatikada va hayotdagi ahamiyatini tushunib, anglab boradi. Bu esa o'quvchilar uchun til o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini yanada kuchaytiradi va o'z tillarini mukammal bilishga intilishiga sabab bo'ladi. Kelishik affiksularining pleonastik ravishda qo'llanilishi (*Bizga bu kitob o'n besh ming so'mdanga tushdi*), ularning belgisi yoki belgisiz ishlatilishidan kelib chiqadigan ottenkalar (*ilon yutgan odam*), shu bilan

⁴ Mahmudov N va b. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5 - sinfi uchun darslik.– Toshkent: G'.G'ulom, 2020. – 192 b.

⁵ Azimova I., Mavlonova K., Quronov S., Tursun Sh., Hakimova N., Siddiqov M. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik.–Toshkent: RTM, 2022. – 240 b.

⁶ Mengliyev B., Toshmirzayeva Sh., Atoyeva S., Majidov S., Mannopova D. Ona tili Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 10-sinfi uchun darslik. I qism. –Toshkent: O'qituvchi, 2020. – 98 b.; Mengliyev B., Toshmirzayeva Sh., Atoyeva S., Majidov S., Mannopova D. Ona tili Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 10-sinfi uchun darslik. II qism. –Toshkent: O'qituvchi, 2020. – 96 b.

bog'liq ravishda, kelishik affiksini ba'zan tushirib qoldirish, ba'zan esa tushirib qoldirish mumkin emasligi masalalari ham stilistik qiymatga ega. Kelishik shakllarini noo'rin almashtirib qo'llash yoki nutq jarayonida bir kelishik shaklini grammatik jihatdan to'g'ri nutq yaratish maqsadi bilan takror qo'llash ham stilistik xatolikka, tinglovchini so'zlovchidan zerikib qolishiga olib keladi. Masalan, *Men Buxoro davlat universitetining filologiya fakultetining bitiruvchi kursining talabasiman*. Ushbu gapda *-ning* qaratqich kelishigi shakli grammatik jihatdan to'g'ri qo'llangan, lekin uslubiy xato sanaladi. Ushbu gap "*Men Buxoro davlat universiteti filologiya fakultetining bitiruvchi kurs talabasiman*" yoki "*Men Buxoro davlat universiteti Filologiya fakulteti bitiruvchi kursi talabasiman*" shaklida tuzilsa, uslubiy jihatdan ham, grammatik jihatdan ham jumla to'g'ri bo'ladi. Ta'lim jarayonida har bir kelishik shakllarining grammatik va uslubiy vazifasini o'quvchilarga misollar orqali asoslab tushuntirib borish kerak.

O'zbek tilida ba'zi kelishik qo'shimchalarining belgili-belgisiz qo'llanilishi, biri-biri bilan almashinish imkoniyati, ayrim ko'makchilar bilan ma'nodosh holatda qo'llanilishi, ayrimlarining qisqargan shaklda qo'llanilishi kabi bir qator xususiyatlariga ko'ra turli uslubiy ma'no nozikliklarining yuzaga chiqishiga imkoniyat beradi. Masalan, tushum kelishigi belgili qo'llanganda, obektni ta'kidlash ma'nosi ifodalanadi, belgisiz qo'llanganda esa bu ta'kid yo'qoladi. Qiyoslang: *olmalarni terdi - olmalar terdi*.

Yoki birikmada tushum kelishigi qo'llanganda, ob'ektning butunligi nazarda tutilganligi, ayni o'rinda chiqish kelishigi qo'llanganda esa ob'ektning bir qismiga e'tibor qaratilganligi anglaniladi. *Olmani yedi – olmadan yedi*. Yoki jo'nalish kelishigining uchun ko'makchisi bilan ma'nodoshligi asosida almashtirilishi ham ifodada uslubiy farqni yuzaga keltiradi. Qiyoslang: *onamga oldim – onam uchun oldim*. Qaratqich va tushum kelishiklari qo'shimchalari badiiy uslubda, xususan, she'riyatda -n shakli qisqargan hola qo'llanilishi va matnda ekpressivlik, poyetik ohang baxsh etishi mumkin. Masalan, *Qarshimda yer sharni surati turar, Salmog'i Quvaning anoricha bor. (A. Oripov) Dengiz ortin yoritdi ilk bor Beruniyning aql mash'ali. (A. Oripov)*

| Kelishik | Grammatik Vositasi | So'rog'i | Masalan | Grammatik vazifasi | Uslubiy vazifasi |
|-----------------|---------------------------|-------------------------|-------------------------|--|--|
| bosh k. | – Ə | Kim? Nima? Qayer? | <i>Ota kitob Buxoro</i> | ega, kesim, aniqlovchi, to'ldiruvchi , undalma | murojaat (<i>Ota, sizni kutyapmiz</i>) ta'kid (<i>Insonning ma'naviy dunyosini boyituvchi-</i> |



"PROBLEMS AND PROSPECTS FOR THE IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARY RESEARCH"



| | | | | | |
|---------------|--|-----------------------------|-------------------------------------|-------------------------------|---|
| | | | | | <i>kitob.) atash (Buxoro!)</i> |
| qaratqich k. | -ning (adabiy nutq) -ing (so'zlashu v n.) -n (poyetik nutqqa xos) -im (badiiy nutqqa x.) | Kiming? Nimanin? Qayerning? | <i>otaning kitobning Buxoroning</i> | aniqlovchi | ekspressivlik, poyetik ohang (<i>O'zbekistoni m mening</i>) aniq obyekt (<i>me-ning uyim</i>) noaniq obyekt (<i>Buxoro savdo</i>) |
| tushum k. | -ni (adabiy nutq)-i (so'zlashu v nutqi)-n (poyetik nutqqa xos)-o (so'zlashu v nutqi) | Kimni? Nimanin? Qayerni? | <i>Otani kitobni Buxoroni</i> | to'ldiruvchi, hol | ta'kid (<i>olmani yedi</i>) butun (<i>olmani yedi</i>) |
| jo'nalish k. | -ga/-ka/-qa | Kima? Nimaa? Qayerga? | <i>Otaga kitobga Buxoroga</i> | aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol | atalganlik (<i>otamga</i>) yo'nalganlik (<i>mak-tabga</i>) |
| o'rin-payt k. | -da | Kimda? Nimada? Qayerda? | <i>Otada kitobda Buxoroda</i> | to'ldiruvchi, hol, kesim | o'rin (<i>ko'chada o'tiribdi</i>) payt (<i>tongda keldi</i>) holat (<i>hayratda qoldi</i>) |
| chiqish k. | -dan | Kimdan? Nimada? Qayerdan? | <i>Otadan kitobdan Buxorodan</i> | to'ldiruvchi, hol, kesim | qism (<i>nondan yedi</i>) o'rin (<i>Buxorodan keldi</i>) payt (<i>tongdan boshlandi</i>) |



"PROBLEMS AND PROSPECTS FOR THE IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARY RESEARCH"



| | | | | | |
|--|--|--|--|--|--|
| | | | | | sabab (<i>sevin-ganidan gapirdi</i>) |
|--|--|--|--|--|--|

Kelishik qo'shimchalari o'zi qo'shilgan so'zlarni tobe bog'lash bilan birga yo'nalish (*Nodira shu yo'l bilan uyga ketdi*), o'rin ma'nosini (*Nodira maktabga joylashdi*), qism, bo'lak (*suvdan ichdi*), butun (*suvni ichdi*) kabi uslubiy ma'nolarni ifodalaydi. Kelishik qo'shimchalarining uslubiyatini o'qitishda o'quvchilarga kelishik qo'shimchalarini grammatik vazifalari bilan birgalikda singdirish maqsadga muvofiq bo'ladi. O'quvchi o'rganayotgan bilimlarini qachon, qayerda, qanday vaziyatda qo'llashni bilmas ekan o'quvchi o'rgangan bilim bilimligicha qolaveradi. Bilimni o'qituvchi va o'quvchi hamkorlikda harakat bilan ko'nikma, malaka, kompetensiya darajasiga olib chiqishi kerak. Kelishik qo'shimchalari o'zaro almashinib qo'llanilishi mumkin. Bunda almashingan kelishik qo'shimchasi o'rin bo'shatgan kelishik qo'shimchasi bajaragan vazifani bajaradi:

1. –ni va –dan qo'shimchalari almashinib qo'llanilishi mumkin: *Olmani(dan) oling.*
2. –ni va –ga qo'shimchalari almashinib qo'llanilishi mumkin: *So'zingizga (so'zingizni) tushunmadim.*
3. –ni va –da qo'shimchalari almashinib qo'llanilishi mumkin: *Gulzorni (gulzorda) aylandim.*
4. –ning va –dan qo'shimchalari almashib qo'llanishi mumkin: *kelayotganlarning biri – kelayotganlardan biri.*
5. Kelishiklar va ko'makchilar almashinib qo'llaniladi:
 - a) –ga qo'shimchasi o'rnida uchun ko'makchisi qo'llanadi: *Onamga oldim–onam uchun oldim.*
 - b) –da qo'shimchasi o'rnida bilan ko'makchisi qo'llaniladi: *Xatni qalamda yozdi. –Xatni qalam bilan yozdi.*
 - d) –dan qo'shimchasi o'rnida orqali ko'makchisi qo'llaniladi: *She'rni Dostondan eshitdik. – She'rni Doston orqali eshitdik.*

Maktabda ona tili ta'limida o'qitilayotgan mavzularning har birini uslubiyati bilan birgalikda o'qitish, mavzu bo'yicha olingan bilimlarni hayotiy tajribada faol qo'llay olish imkonini beradi. Bugungi kunda har bir sohada bo'lgani kabi ta'lim tizimida ham yangicha yondashuvlar bilan jarayonni tashkil etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Dars jarayonining eng so'nggi zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol usullardan foydalanib tashkil etish o'quvchilarni olayotgan bilimlari bilan birga tayanch va fanga oid kompetensiyalarni ham o'zlashtirib olish imkonini beradi. Tilni uslubiyat bilan birgalikda o'rganish esa har bir o'quvchida nutq madaniyatiga ega bo'lish, notiqlik qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Maktab ta'limida mavzuni o'qitishda har bir kelishik affikslarining grammatik vazifasi tushintirilgach, ularning uslubiy vazifasi haqida tushuncha berish va



"PROBLEMS AND PROSPECTS FOR THE IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARY RESEARCH"



affikslardan nutqning har qaysi (so'zlashuv, badiiy, rasmiy, publisistik, ilmiy) uslubiga mos misollar tuza olish ko'nikmalarini shakllantirish, olingan bilimlarni malaka darajasiga olib chiqishda turli darajadagi test sinovlaridan foydalanish, kompetensiyalarini shakllantirish uchun "Assesment" texnikasidan foydalanish ham yaxshi natija beradi.

Bugungi kunda barcha sohalarda o'zbek tilining jamiyatdagi o'rni va nufuzini oshirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar qilinmoqda. Davlatimiz tomonidan ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy sohalardagi islohotlar, jumladan, ta'lim-tarbiya ishlarini zamon talablari asosida tashkil etish, madaniyat, san'at va adabiyot sohalarini takomillashtirish, kitobxonlik madaniyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan farmon va qarorlar o'zbek tili, xususan, ona tili ravnaqiga xizmat qilmoqda.

Shunga qaramay, ona tilini o'quv predmeti sifatida o'qitish borasida o'z yechimini kutayotgan bir qator dolzarb muammo va kamchiliklar saqlanib qolmoqda. Jumladan,

ona tili o'quv predmetini o'qitishda, asosan, nazariy ma'lumotlarga e'tibor qaratilgan bo'lib, o'quvchining nutqiy (tinglab tushunish, gapirish, o'qish, yozish) kompetensiyasini oshirishga yetarli e'tibor berilmagan;

ona tili o'quv predmetida o'qitiladigan mavzular sinflar kesimida tahlil qilinganda, o'quvchi uchun murakkab bo'lgan ko'plab grammatik mavzularning mavjudligi;

ona tili o'quv predmetini hayot bilan bog'lab o'tishga, ona tilimizning boy imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda, o'quvchilarga mazmunli, sodda, qiziqarli tarzda etkazib berishga e'tibor qaratilmagan;

o'quvchilar darsliklardagi mavzularni o'zlashtirishida qiziqish, ishtiyoq, maylni hosil qiladigan, mantiqiy, kreativ, ijodiy fikrlashga undovchi mashqlar, topshiriqlar o'z aksini topmagan;

umumiy o'rta ta'lim maktablarida ona tili o'quv predmetini o'qitishning yangi, samarali usullari, ilg'or pedagogik texnologiyalarini keng joriy etish talab darajasida emas;

ona tili o'quv predmetining ilmiy metodik ta'minoti (darslik, o'qituvchi kitobi, mashq daftari, multimedia ilovalar, didaktik materiallar va boshqa) yetarli darajada ishlab chiqilmagan;

ona tili o'quv xonalari zamonaviy talablar asosida jihozlanmagan, o'quv predmeti mavzulariga tegishli rasm-tasvirlar, infografikalar mavjud emas, o'quvchining savodxonligini oshirishga xizmat qiluvchi turli xil lug'atlar (imlo lug'ati, izohli lug'at, sinonimlar, antonimlar, omonimlar, iboralar lug'ati; masalan, N.Mahmudovning "So'z sandiqchasi" nomli boshlang'ich sinf o'quvchilariga mo'ljallangan o'zbek tilining izohli lug'atchasi (Toshkent: G.G'ulom nomidagi NMIU, 2016. 216 bet 3 ming nusxada nashr etilgan) ona tili sinf xonalarida mavjud emas;



o'qituvchi va pedagoglarning metodik ta'minotini yaxshilash, ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari va metodistlari uchun masofadan o'qitish kurslari joriy etilmagan;

mavjud oliy ta'lim muassasalarida ona tili fani yo'nalishida o'qituvchi, pedagog kadrlarni tayyorlash sifati bugungi kun talablariga mos kelmasligi ona tili o'quv predmetini o'qitishni tubdan qayta ko'rib chiqish va zamon talabiga mos ravishda yangilashni taqozo etmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1 Abdullayev A. O'zbek tilida ekspressivlikning ifodalanishi. –Toshkent: Fan, 1983. – 87 b.
- 2 Абдурахмонов Х., Махмудов Н. Сўз эстетикаси. – Тошкент: Фан, 1981. –59 б.
- 3 Азнаурова Э.С. Очерки по стилистике слова.–Тошкент: Фан, 1973. – 406 с.
- 4 Begmatov E. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari.– Toshkent: Fan, 1985.
- 5 Бегматов Э., Бобоева А., Асомиддинова М. Адабий норма ва нутқ маданияти. –Тошкент: Фан, 1983. –152 б.
- 6 Бегматов Э. Нотиқнинг нодир бойлиги. –Тошкент: Ўзбекистон, 1980.
- 7 Бегматов Э , Бобоева А., Асомиддинова М., Умурқулов Б. Ўзбек нутқи маданияти очерклари. –Тошкент: Фан, 1988.
- 8 Ибрагимов Х., Абдуллаева Ш. Педагогика назарияси. Дарслик. – Т.: Фан ва технология, 2008. –288 б.
- 9 Ишмухамедов Р., Абдуқодиров А., Пардаев А. Таълимда инновацион технологиялар. – Т.: Истеъдод жамғармаси, 2008.
- 10 Жамолхонов Ҳ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Тошкент: Талқин, 2005.
- 11 Каримов С. Ўзбек тилининг грамматик стилистикаси масалалари.– Самарқанд, 2012.
- 12 Махмудов Н. Тил. – Т.: Ёзувчи, 1998. – 40 б.
- 13 Махмудов Н., Миртожиев М. Тил ва маданият. –Т.: Ўзбекистон, 1992. – 110 б.
- 14 Махмудов Қ. Тилимизнинг қонунлари алифбомиз такомилли гаровидир. –Тошкент, 2011. – 27 б.
- 15 Миртожиев М., Махмудов Н. Тил ва маданият. –Т.: Ўзбекистон, 1992.
- 16 Маматов А.Э. Ҳозирги замон ўзбек адабий тилида лексик ва фразеологик норма муаммолари. –Тошкент, 1991. – 274 б.
- 17 Неъматов Ҳ., Фуломов А. Мактабда тил сатҳларини ўзаро боғлаб ўргатиш. – Т.: РТМ, 1992. – 30 б.



"PROBLEMS AND PROSPECTS FOR THE IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARY RESEARCH"



- 18 Omonturdiyev A., Abduraimova Sh. O'zbek nutqi madaniyati va uslubi. – Toshkent, 2016. – 98 b.
- 19 Розиков О., Махмудов М., Адизов Б. Она тили дидактикаси. – Т.:Фан, 2006. – 337 б.
- 20 Қўнғуров Р. Субъектив баҳо формаларининг семантик ва стилистик хусусиятлари. –Тошкент: Фан, 1980.
- 21 Қўнғуров Р., Бегматов Э., Тожиев Ё. Нутқ маданияти ва услубият асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. –162 б.
- 22 Қиличев Э. Ўзбек тилининг практик стилистикаси. –Тошкент: Ўқитувчи, 1985. –Б. 88.
- 23 Қиличев Э. Бадиий тасвирнинг лексик воситалари. –Т.: Фан, 1982.– Б.18.
- 24 Қиличев Э. Ўзбек тилининг амалий стилистикаси. –Т.: Ўқитувчи, 1992. –Б.12.
- 25 Қиличев Э., Қиличев Б. Нутқ маданияти ва услубият асослари. – Бухоро, 2002.
- 26 Қодиров П.Тил ва эл. –Тошкент: Маънавият, 2010. –Б.14.
- 27 Рустамов А. Сўз хусусида сўз.–Тошкент, 2010.
- 28 Sayfullayeva R., Mengliyev B., Raupova L., Qurbonova M., Abuzalova M., Yuldasheva D. Hozirgi o'zbek tili. Darslik. – Buxoro: Durdona, 2021.–555 b.
- 29 Султонсаидова С., Шарипова Ў. Ўзбек тили стилистикаси. – Тошкент: Юрист-медиа маркази, 2009. – Б.38.
- 30 Турсунов У., Мухторов А., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент, Ўзбекистон, 1992.
- 31 Йўлдошев Б. Бадиий нутқ стилистикаси. –Самарканд, 1982. –82 б.
- 32 Yo'ldosheva D.N. Ona tili ta'limi maqsadining tadrijiy taraqqiyoti. – Toshkent: O'zME, 2019. – 168 b.